

**"BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA QIZIQARLI ERTAK KITOBLARDAN  
FOYDALANISH METODIKASI".**

**Kadamova Mohinur Mamurbek qizi**

*Urganch Davlat Universiteti Pedagogika fakulteti*

*Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich  
talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu ilmiy maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida qiziqarli ertak kitoblardan foydalanish metodikalari bolalarni kitobga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularni fikirlash doiralarini o'rganish hamda o'qishga bo'lgan qiziqishlaridagi muammolarni bartaraf qilish haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *kitob o'qish qoidalari va tartibi, bahoning ahamiyati, motivatsiya, nutq va tafakkurning shakllanishi.*

**Аннотация:** *В данной научной статье рассказывается о методах использования интересных книг-сказок на уроках родного языка в начальных классах для повышения интереса детей к книгам и изучения их кругов мышления и устранения проблем в их интересе к чтению*

**Ключевые слова:** *правила и порядок чтения книг, важность оценок, мотивация, формирование речи и мышления.*

**Abstract:** *This scientific article talks about the methods of using interesting fairy-tale books in primary-grade mother tongue classes to increase children's interest in books and explore their thinking circles and eliminate problems in their interest in reading.*

**Key words:** *rules and order of reading books, importance of grades, motivation, formation of speech and thinking.*

Ichki motivatsiya haqida kamdan-kam bosh qotiramiz. Bizning samimiy xohish istaklarimiz, holatimizni tushuntirish uchun birgina so'z yetarli "istayman". Bolalar o'zlariga yoqadigan guruhning qo'shig'ini bajonidil tinglashadi, o'z qo'llari bilan biror narsa yasashadi yoki sarguzasht romanlar o'qishadi, chunki ularga shunday qilish yoqadi. Tashqi motivatsiya har xil bo'ladi - cho'ntak pullaridan tortib, to maktabdagi baholargacha. Buni bir gap bilan izohlash mumkin: "Mana bunday qilsang, buni qo'lga kiritasan". Psixolog Alfi Kon "Mukofot bilan jazolash" kitobida nafaqat ota-onalarni, balki o'qituvchilarni ham turli imtiyozlarni qo'llashdan ogohlantiradi. Ba'zi ota-onalar farzandi yaxshi o'qishi uchun hayvonot bog'iga olib borishni va'da qilishadi, boshqalari qimmatbaho gadjyetlarni xarid qilishadi va hatto pul ham berishadi. Muammo shundaki, bu usul ish bermaydi: o'quvchi shunday o'qishda davom etaveradi, boz ustiga, va'da qilingan narsaga erisha olmagan uchun yaqinlaridan xafa ham bo'ladi! O'qituvchilar ko'rinishidan olijanob usullar bilan ishtiyoqni oshirishga harakat qilishadi: turli maqomlar (o'yning eng yaxshi o'quvchisi) joriy qilishadi, yaxshi

o'qiydiganlar uchun imtiyozlar yaratishadi. Ko'pincha shunday bo'ladi, o'ying eng yaxshi o'quvchisi asosan bir o'quvchi bo'ladi, imtiyozlar esa odatda tarkibi o'zgaraydigan o'quvchilar doirasiga beriladi. Qolgan o'quvchilar esa o'zlarini omadsizdek his qilishadi. Nima uchun tashqi motivatsiyani oshirish ish bermaydi? Biz "Mana bunday qilsang, buni qo'lga kiritasan", degan paytimizda bola dastlab va'dani ishtiyoq bilan qabul qiladi. Shu bilan birga, unda o'zini o'zi himoyalash instinkti ham ishga tushadi. Bola muammoni hal qilishning ijodiy usulini emas, eng ishonchli va qisqa yo'lni izlay boshlaydi. U o'ziga o'zi savol beradi: "Tavakkal qilib, nazorat ishini o'zim yozishimga ne hojat? Yaxshisi, a'lochilardan ko'chirib olaman, shunisi ishonchliroq". Qarabsizki, maqsadlar o'zgarishi ro'y beradi: bilim olish uchun o'qish emas, mukofot olish uchun o'qish. Tashqi motivatsiya zo'r ishlashi mumkin, faqat ichkisi bilan birga. U o'z-o'zidan oldinga harakatlanmaydi, shunchaki "ishni uddalash", tezroq xohlagan narsasiga erishishga majbur qiladi. O'qishga bo'lgan qiziqishga nima ta'sir qiladi?

1. Kichik yoshdagi bolalar o'qishga tayyor va ular buning uchun hech narsa talab qilishmaydi. Ularda ichki motivatsiya kuchli rivojlangan bo'ladi: ular o'zlariga qiziq bo'lgani uchun ham o'qib o'rganishadi.

2. Ichki motivatsiyani saqlab qola olgan bolalar samarali o'qishadi. Qolganlarni esa uddalay olmaydi deb hisoblashadi, biroq bunday emas. Ba'zi maktab o'quvchilari faqat past baho olishsa-da, boshqa sohalarda o'zlarini ijobiy namoyon etishadi. Masalan, sevimli xonandasining o'nlab qo'shiqlarini yoddan bilishadi (matematikada esa ko'paytirish jadvalini eslay olishmaydi). Yoki fantastikani berilib o'qishadi (klassikaga esa qo'l tekkizishmaydi). Ularga shu qiziq. Ichki motivatsiyaning mohiyati ham shundadir.

3. Imtiyozlar ichki motivatsiyani yo'qqa chiqaradi. Psixologlar Kerol Eymys va Kerol Duek ota-onalar hamda o'qituvchilar qandaydir imtiyozga urg'u berishganda bolalarning qiziqishi darhol so'nishini aniqlashdi. O'qishga motivatsiyani qaytarish uzoq jarayon va buning muvaffaqiyati asosan ota-onaga bog'liq. Kattalar eng avvalo uch narsa haqida bosh qotirishlari kerak: mazmun, hamkorlik va tanlov erkinligi.

1. Mazmun. Bola talabimizni bajarmaganida biz uning xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatish usullarini qidiramiz. Yaxshisi, talabingiz qanchalik to'g'ri ekani haqida o'ylab ko'ring. Farzandingiz fizikadan faqat "4" va "5" olmasa, buning hech qanday qo'rqinchli joyi yo'q. Bolalar "shovqin qilmaslik" borasidagi talabimizni "quloqsiz" ekanliklari uchun emas, o'z yoshlarining psixologik xususiyatlari sababli rad etishadi.

2. Hamkorlik. Afsuski, bola bilan muloqot qilish kontekstida bu so'z ko'p otaonalar uchun notanish. Biroq farzandlaringiz qancha katta bo'lganlari sari, ularni shuncha ko'p hamkorlikka jalb qilishingiz kerak. Muhokama qilish, tushuntirish berish, birga rejalar tuzish kerak. Bola bilan katta odamdek suhbatlashishga harakat qilib ko'ring. 15 yoshli bolaning kosmonavt bo'lish orzusiga bee'tibor bo'lish kerak emas. Nima uchun buning ilojsiz ekanini xotirjam o'tirib tushuntiring. Ehtimol, o'g'lingiz sizning so'zlaringiz orasidan o'sish uchun ichki motivatsiya topa olar.

3. Tanlov erkinligi. Bola o'zini jarayonning bir bo'lagidek his qilishi kerak, shunda u muammo yechimini topishga mas'uliyat bilan yondashadi. Farzandingiz o'zini yomon tuta boshlasa, undan buning sabablarini so'rang. Siz "shundoq ham gap nimadaligini bilaman" deyishingiz mumkin, shunday bo'lsa-da, urinib ko'ring. Ehtimol, uning javobi sizni ajablantirar.

Ichki motivatsiyani izlaymiz. Bolaning ichki holatini to'g'irlash oson emas, shunga qaramay, bu yo'nalishdagi sa'y-harakatlar o'z mevasini berishi mumkin. Farzandingizni qabul qilishni o'rganing. Masalan, qizingizning yangi imdji sizga yoqmasligi mumkin, lekin siz uni qabul qilishingiz kerak. Boshqacha aytganda, gap erkalatish emas, tushunish haqida bormoqda. Samimiy suhbatlashing. Agar farzandingiz bilan qalban yetarlicha yaqin bo'lsangiz, dastlab u bilan shunchaki suhbatlashing. Uning nimalarga qiziqishi hamda o'qishda qanday muammolar yuzaga kelayotgani haqida so'rang. Vaziyatdan chiqish yo'lini birga toping. Bolaga hayotdagi maqsadi borasida bir to'xtamga kelishga yordam bering. Ko'pincha ichki motivatsiya bo'lmaydi, chunki bola bu formulalar, oxiri yo'q qoidalar va teoremlarning nima uchun kerakligini tushunmaydi. Farzandingiz maktabni tugatganidan keyin nima bilan shug'ullanishi istashi borasida bir to'xtamga kelishi muhim. Buni tushunishga ota-ona bilan uzoq suhbatlar, professional yo'nalish bo'yicha maslahatlar va o'smirlar uchun kitoblar yordam beradi. O'quv jarayonini bolaning qiziqishlari ustiga quring. O'qishda bolaning samimiy qiziqishlari (ichki motivatsiyasi)ni maktabdagi darslar bilan birlashtirishga harakat qilish kerak. Bu jarayon individual va ota-onalar tomonidan katta e'tibor talab qiladi. Masalan, ingliz tilini sevimli filmingiz yordamida o'rganishingiz mumkin. Kompyuter o'yinlarini juda yaxshi ko'ruvchi o'smirni esa dasturlash va u bilan bog'liq bilimlar qiziqtirishi kerak. Boladan ichki motivatsiyani tortib chiqarish eng muhim vazifalardan biri. Zukko, dono, farzanding hayotiga samimiy qiziqadigan ota-ona uchun esa bu muammo emas. Mamlakatimizda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarga innovatsion, ilg'or usullar va metodlarni qo'llab, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib ta'lim berish hamda o'quvchilarning ta'limdagi sifat samaradorligini oshirish, yoshlarni raqobatbardosh qilib tarbiyalash ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifa hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 187-sonli qarori, 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmonlarida belgilangan qator vazifalar o'quvchilarning lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga zamin hozirlaydi. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da belgilab berilgan "mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik

islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" vazifasi kichik maktab yoshidagi o'quvchilarining mustaqil fikrlash salohiyatini kengaytirish tub islohotlar zamirida rivojlanayotgan davlatimizda faol, izlanuvchan va zamon bilan hamnafas bo'lishni taqozo etadi. Shu bois ilm berishda sharq allomalari mustaqil fikrlash, fikrni bayon qilish, nutq tuzish jarayonidagi muhim jihatlarni qamrab oluvchi ilmiy qarashlarini qayd qilganlar va shu bilan bir qatorda, nutqning ilmiy nazariy tomoni lug'atlarda, darslik va o'quv vametodik qo'llanmalarda izoh berib, atroflicha yoritilgan. Forobiyning fikricha, qanday qilib ta'lim berish va ta'lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berish (masalasi)ga kelganda, bu haqdagi ilmlarning eng birinchisi jismlarga, ya'ni substansiya va aksidensiyalarga ism beruvchi til haqidagi ilmdir. Ikkinchisi ilm grammatikadir. U jismlarga berilgan ism (nom)larni qanday tartibga solishni hamda substansiya va aksidensiyaning joylashishiga va undan chiqadigan natijalarni ifodalovchi hikmatli so'zlarni va nutqni qanday tuzishni o'rgatadi. Uchinchi ilm mantiqdir. U ma'lum xulosalar keltirib chiqarish uchun mantiqiy figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni o'rgatadi. Bu xulosalar yordamida biz bilinmagan narsalarni bilib olamiz hamda nima to'g'ri va nima yolg'on ekanligi haqida hukm chiqaramiz". O'quvchilar nutqida mantiq ilmiga asoslanib fikr-mulohaza bildirish maqsadga muvofiq. Shu bois ular xotirasidagi so'z zahirasini o'z nutqi orqali harakatga keltiradi. Nutq va uni o'stirish tushunchasi. Nutq - kishi faoliyatining turi, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar funksiyasini, o'zaro fikrni his-hayajon bilan ifodalash va ta'sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishining aktiv faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir. Nutq o'stirish nima? Agar o'quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, tilni har tomonlama (talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishini, bog'lanishli nutqni) aktiv amaliy o'zlashtirish tushuniladi. Agar o'qituvchi ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, o'quvchilar tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni muhim aktiv egallashlariga yordam beradigan metod va ish turlarini qo'llash tushuniladi. Nutq faoliyati uchun, shuningdek, o'quvchilar nutqini o'stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur: Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo'lishi kerak. O'quvchilap nutqini o'stirishning metodik talabi o'quvchi o'z fikrini, nimanidir og'zaki yoki yozma bayon xohishi va zaruriyatni yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi, So'z, so'z birikmasi va gap ustida ishlash uchun lingvistik baza bo'lib leksikologiya (frazologiya va stilistika bilan birgalikda), morfologiya, sintaksis xizmat qiladi; bog'lanishli nutq esa mantiqqa, adabiyotshunoslik va murakkab sintaktik butunlik lingvistikasiga asoslanadi. Nutq o'stirishda izchillik to'rt shartni, ya'ni izchilligi, istiqboli, xilma-xilligi, xilma-xil turlarini umumiy maqsadga bo'ysundirish ko'nikmasini oshirish bilan ta'minlanadi. Ichki nutq eshittirilmagan va yozilmagan, «o'ylangan» (fikrlangan) nutqdir. Tashqi nutq tovushlar yordamida eshittirilib yoki grafik belgilar

bilan yozilib, boshqalarga qaratilgan nutqdir. Ichki nutq materialni tushunish va yodda saqlashga yordam beradi. Fikrni ifodalash usuliga ko'ra nutq og'zaki va yozma bo'ladi. Og'zaki nutq ko'pincha dialog tarzida, yozma nutq esa monolog tarzida bo'ladi. O'quvchilar nutqiga qo'yilgan talablar Nutq o'quvchilar tafakkurini o'stirishda muhim vositadir. Nutq fikrni bayon etish vositasi bo'libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o'stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat sistemasini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o'stirish mumkin. Shuning uchun o'quvchilar nutqini o'stirish materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga oidini tanlash, joylashtirish, mantiqiy operatsiyalarga katta ahamiyat beriladi. Tafakkur til materiali yordamida nutqiy shakllantirilsa va bayon etilsagina muvaffaqiyatli o'sadi. Tushuncha so'zlar yoki so'z birikmalari bilan ifodalanadi, shunday ekan, tushuncha til vositasi bo'lgan so'zda muhim aloqa materialiga aylanadi. Kishi tushuncha ifodalaydigan so'z (so'z birikmasi) ni bilsagina, shu tushunchaga asoslangan holda, tashqi nutqda fikrlash imkoniga ega bo'ladi. Nutqda fikr shakllantiriladi, shu bilan birga, fikr nutqini yaratadi. «Nutq tafakkur bilan chambarchas bog'langandir. Nutq bo'lmasa, tafakkur ham bo'lmaydi, til materiali bo'lmasa, fikrni ifodalab berib bo'lmaydi». Fikrni nutqiy shakllantirish uning aniq, tushunarli, sof, izchil, mantiqiy bo'lishini ta'minlaydi. Tilni egallash shu tilning fonetikasini, lug'at sostavini, grammatik qurilishini bilib olish, fikrni takomillashtirish uchun, tafakkurni o'stirish uchun shart-sharoit hozirlaydi. Bilimlar, faktlar, har xil axborotlar tafakkurning ham, nutqning ham materialidir. Nutq tafakkur jarayonini o'rganishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Nutqdan o'quvchiniig fikriy rivojining asosiy o'lchovlaridan biri sifatida foydalaniladi. O'quvchining barcha predmetlardan materialni o'zlashtirishi va umumiy aqliy rivojlanishi haqida fikr yuritganda, u yoki bu mavzuni bola o'z nutqida (yozgan inshosida, axborotida, qayta hikoyalashda, savollarga bergan javobida) qanday bayon eta olishiga qaratiladi. Shunday qilib, nutqni tafakkurdan ajratib bo'lmaydi, nutq tafakkur asosida rivojlanadi, fikr nutq yordamida pishib yetiladi, yuzaga chiqadi. Ikkinchi tomondan, nutqning o'sishi fikrni shakllantirishga yordam beradi, takomillashtiradi. Uchinchi tomondan, nutqning o'sishi fikrni shakllantirishga yordam beradi, takomillashtiradi. O'quvchilar nutqini o'stirishning mashg'ulotning boshqa turlari bilan bog'liqligi. O'quvchilar nutqini o'stirish boshqa o'quv predmetlaridan o'tkaziladigan mashg'ulotlar bilan ham uzviy ravishda bog'lanadi. Ona tili darslarida o'quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar; ular kuzatishni, o'ylashni va ko'rganlari, eshitganlari, o'qiganlari bo'yicha to'g'ri bayon qilishni o'rganadilar. Ona tili darslari bolalap lug'atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni tuzishni o'rgatadi. O'qish darsi va u bilan bog'liq holda olib boriladigan ekskursiya o'quvchilarga tabiat hodisalari, kishilar hayoti va mehnati haqida, axloq qoidalari, boshqa kishilar bilan muomala normalari haqida bilim beradi; bu darsda o'quvchi nutqiga, uni shakllantirish va o'stirishga keng imkoniyat mavjud. Grammatika va to'g'ri yozuv darslarida tilni maxsus o'rganish bilan bolalar alohida tovush, bo'g'in, so'z va gaplarni eshitishga va

aytishga o'rganadilar. Ular predmet, harakat, belgi bildirgan ko'pgina so'zlarni, shuningdek, tovush, harf, bo'g'in, o'zak, so'z, so'z yasovchi, forma yasovchi, qo'shimcha, so'z turkumi, ot, sifat, son, fe'l, olmosh, bog'lovchi, gap, gap bo'lagi, bosh bo'lak, ikkinchi darajali bo'lak, darak gap, so'roq gap, undov gap; turlanish, bosh kelishik singari juda ko'p yangi terminlarni bilib oladilar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Sinfdan tashqari ta'lim o'quv rejasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga yaqindan yordam beradi. Buning uchun o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash, ularni oddiy kitobxonlardan ijodiy kitobxonlar darajasiga ko'tarish zarur. O'quvchilarda kitobga bo'lgan kayfiyatni shakllantirishda har bir bolaga alohida yondashish, uning shaxsiy manfaatlarini hisobga olish zarur. Bolalarning kitob ustida ishlash qobiliyatini shakllantirish ularni kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishda muhim omil bo'lmoqda. Sinfdan tashqari o'qish bilan tanish bo'lmagan mualliflarning kitoblari muqova, sarlavha sahifasi, kirish, mundarija va rasmlarga qarab asarning taxminiy mazmunini aniqlashga xizmat qiladi. Sinfdan tashqari kitobxonlik mashg'ulotlarining asosiy vazifasi o'quvchida badiiy adabiyot o'qishga ishtiyoq uyg'otish, o'qigan kitoblari asosida kundalik tartibqoidalarini tuzishga o'rgatish, bolalar adabiyotining mashhur mualliflari hayoti va ijodi bilan tanishtirishdan iborat. elementar tarzda. Bolalarda ezgulikka mehr, yomonlikdan nafrat tuyg'ularini uyg'otish, bog'langan nutqini rivojlantirish, adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish sinfdan tashqari o'qish darslarining mazmun-mohiyatini tashkil etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Boshlang'ich maktab darsliklarini yaratish mezonlari Tuzuvchilar: Q. Abdullayeva, M. Ochilov, K. Nazarov, S. Fuzailov, N. Bikboyeva. — T.: 1994.
2. J. G'. Yo'ldoshev, S. A. Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. — T.: „O'qituvchi“, 2004.
3. Y. Abdullayev. Eski maktabda xat-savod o'rgatish. - T.: „O'qituvchi“, 1960.
4. Mirziyoyev SH. Buyuk kelajagimiz mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz, Toshkent: O'zbekiston. 2017
5. Mirziyoyev SH. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt va xalq farovonligining garovi. -Toshkent: O'zbekiston. 2017
6. Almatov T., Yodgorov Q. va Almatova SH. O'zbek tilini o'qitishda innovatsion pedagogic texnologiyalardan foydalanish. -Toshkent, 2013.
7. To'xtayev B., SHamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. -T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010.
8. Gulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. -T.: Fan va texnologiyalar, 2012.